NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

УДК. 398.22:008

ETNIK MADANIYAT VA FOLKLORNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Nasriddin NAZAROV
falsafa fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori
E-mail: nasrid@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-4432-2277

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Etnik madaniyat va folklorning o‘zaro aloqadorligi masalalariga e’tibor qaratiladi. Folklor asarlari etnomadaniyatning tarkibiy qismi sifatida muayyan etnos yoki etnik birlikning asrlar davomida to‘planib, avloddan-avlodga yetkazib kelinayotganligi jihatlari tadqiq etiladi. Ayniqsa, laqay elati og‘zaki ijodi, uni o‘rganish va targ‘ib etishning muhimligi, elat ma‘naviy merosida ko‘plab ertak, maqol, latifa, terma qo‘shiqlar va dostonlar mavjudligi, ularni ilmiy-tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganish muhimligi aytib o‘tiladi. O‘tmishda laqay soqichilik maktablarining elat folklori targ‘ibidagi o‘rni, etnomadaniy jarayonlarda og‘zaki ijod masalalari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Folklor, etnik madaniyat, o‘zbek, laqaylar, soqilar, dostonlar, termalar, ertaklar, rivoyatlar, madaniy meros, an‘analar.*

THE INTERCONNECTION OF ETHNIC CULTURE AND FOLKLORE

Abstract: *This article examines aspects of folklore works as a component of ethnoculture, collected by a certain ethnos or ethnic unit over the centuries and transmitted from generation to generation. In particular, the oral creativity of the Lakay people in the struktura of uzbek nation, the importance of its study and promotion, the presence of many fairy tales, proverbs, anecdotes, folk songs and epics in the spiritual heritage of the people, and the importance of studying them as an object of scientific research are mentioned. In the past, the role of lakay narrative schools in the promotion of folklore, issues of oral creativity in ethnocultural processes are analyzed.*

Keywords: *Folklore, ethnoculture, uzbek, lakay, sokis, epics, tales, narratives, cultural heritage, traditions.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЭТНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются аспекты фольклорных произведений как компонента этнокультуры, собираемых определенным этносом или этнической единицей на протяжении веков и передающихся из поколения в поколение. В частности, устное творчество лакайской народности в составе узбекской нации, важность его изучения и пропаганды, наличие в духовном наследии народа множества сказок, пословиц, анекдотов, народных песен и былин, необходимост изучения их упоминается как объект научного исследования. Анализируется роль лакайских сказительных школ в пропаганде народного фольклора, также делается упор на вопросы устного творчества в этнокультурных процессах.*

Ключевые слова: *Фольклор, этнокультура, узбек, лакай, соки, былины, сказки, нарративы, культурное наследие, традиции.*

Etnomadaniyat namunalariga e’tibor qaratilayotgan bugungi kunda ma‘naviy meros namunalarini targ‘ib etish, shu orqali elning tarixiy tafakkurini boyitib, ajdodlarning betakror madaniy va ma‘naviy merosidan xabardor etish har qachongidan ham muhimdir. Milliy meros bo‘shliqda vujudga kelmasdan, muayyan tarixiy jarayonda, makon va zamonning uzviy bog‘liqligida etnik guruhlar ma‘naviy dunyosida shakllanib, rivojlangan ruhiy-ma‘naviy hamda madaniy xazinalarning umumlashmasidan tashkil topadi. Boy ma‘naviy xazina etnomadaniyatning tarkibiy qismi sifatida milliy meros ko‘lamining kengligini ta‘minlaydi.

O‘zbek millati vakillari orasida o‘zlikni anglash jarayonlari kechayotgan ekan

xalq og‘zaki ijodi, amaliy san‘at namunalari hamda muayyan elat yoki millatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan moddiy va ma‘naviy boyliklari majmuini targ‘ib etish muhim. Ushbu jihat millat yoki elatlarni jahon moddiy va madaniy qadriyatlar tizimi rivojidagi o‘rni va mavqeini belgilaydigan omildir. Bunday yondoshuv elat yoki millatning kelajak taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z vakillari, jumladan ziyoli qatlam vakillariga an‘anaviy hamda zamonaviy qadriyatlarni asrab-avaylab, ularning barqaror rivoji uchun mas‘uliyat hissini yuklaydi. Barcha madaniylashgan jamiyatlar - shu jamiyat tarkibida shakllanib, rivojlanishga moyil bo‘lgan ijobiy qadriyatlar silsilasi rivojiga keng yo‘l ochadi, targ‘ib va tashviqidan manfaatdor bo‘ladi. Chunki, insoniyat vakillari tomonidan yaratilib, kishilarga moddiy, ma‘naviy va estetik zavq bera oladigan qadriyatlar – butun insoniyatga aloqador xazina sifatida e‘zozlanishga haqli. Bunday qadriyatlar targ‘ibi avvalo ziyolilar zimmasida bo‘lib, jamoatchilik e‘tiborini qaratishga

intilishi, etnomadaniy an‘analar targ‘ibi millat va elatlararo hamjihatlikning o‘sishiga hissa qo‘shib, jamiyatda o‘zaro umumiylikning rivojiga ijobiy ta‘sir etishi tabiiydir.

Ilmda muayyan davr uchun muhim bo‘lgan mavsumiy mavzular bilan bir qatorda, asrlar osha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, har bir ijtimoiy-tarixiy sharoitda o‘zining dolzarb qirralarini namoyon eta oladigan tadqiqot mavzulari ham mavjudki, bular chinakam e‘zozlanishga loyiq. Shu jihatdan laqaylar mavzui barcha ijtimoiy-tarixiy davrlarda ham o‘zining dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmasdan, aksincha ochilmagan qo‘riq sifatida yangi qirralarini namoyon etib kelayotganligi e‘tiborlidir. Bunday folklor nam unalari etnik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida elatning turmush sharoitlarini ifodalashi bilan bir qatorda tafakkur imkoniyatlari hamda ma‘naviy salohiyatidan dalolatdir.

O‘zbek millati tarkibidagi Laqay elati ilmiy doiralar tomonidan juda kam o‘rganilgan bo‘lib, boy folklor merosiga egaki, o‘nlab asarlar bitilsada, keyingi tadqiqotchilar uchun yanada ko‘proq materiallar bilan ta‘minlovchi tuganmas madaniy va ma‘naviy xazinadir. Turkiy komponentlarning barcha qirralarini o‘zida mujassam etgan bu elat mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘ziga xos o‘rin va mavqe kasb etgani kabi, barcha soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqiy materiallar xazinasi sifatida ham boyligini hamda saxiyligini namoyon eta olishi quvonarlidir.

O‘zbek-Laqaylar hozirgi Tojikiston Respublikasining markaziy va janubiy tumanlarida yashab, o‘ziga xos milliy an‘analarga egaki, ilmiy va adabiy markazlar tomonidan o‘rganishga, tadqiqot olib borishga arzigulikdir. Elat vakillari tomonidan tikiladigan jo‘rme mapremech, jukcharig‘ich, aynaxalta va bu elatga xos milliy kiyimlar nafaqat mintaqa yoki hamdo‘stlik davlatlari muzeylarini, balki, G‘arbiy Yevropa muzeylarini ham bezab turganligi – elatning boy madaniy meros sohibi ekanligidan dalolatdir. Laqay madaniyatini, milliy an‘analarini, folklorini o‘zlashtirilmagan o‘rmonga qiyos qilsa arziydi. Bu o‘rmon turfa rangdagi tabiiy boyliklarni o‘zida mujassam etsada, mutaxassislar nazaridan chetda qolmoqda. Haqiqatan ham laqay madaniyati va ma‘naviyati maqsadli ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Toki, asrlar davomida misqollab yig‘ilgan milliy madaniy meros namunalaridan kelajak avlodlar ham bahramand bo‘la olsin.

Laqay elati etnomadaniy meros va an‘analari ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallanib, mazmun mohiyat jihatidan boyib boravergan. Bunday udum va an‘analar o‘zbek millati vakillari hamda boshqa turkiy tilli etnik guruhlar o‘zaro umumiylik jihatlariga ega bo‘lishi bilan bir qatorda ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi o‘ziga xos jihatlarga ham egaki, bularni targ‘ib etish elat vakillarining kundalik ijtimoiy-madaniy hayotida va ma‘naviy tafakkurida etnik qadriyatlarimizning asrab-avaylab kelinayotganligi bilan bir qatorda keyingi avlodlarga to‘laligicha yetkazish mas‘uliyatini ham yuklaydiki, bu ziyolilarimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Laqaylar tarixi bevosita elatning o‘tmishdagi ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liqki, ushbu jarayonning barchasi tadqiqotchini tarix sari yetaklab, bu yo‘lda ishonchli ma‘lumotlarni to‘plash imkonini beradi. Shu jihatdan ham laqaylar ijtimoiy va etnomadaniy hayotining ba‘zi qirralariga bag‘ishlangan tadqiqotlar, ayniqsa folklor namunalari o‘zlikni anglab, etnik qadriyatlarning muhim jihatlarini o‘zlashtirishda zaruriy ahamiyatga ega.

Mintaqada yashovchi boshqa xalqlar singari laqaylarda ham oila muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib, shu qo‘rg‘onning barqarorligini ta‘minlash uchun harakat qilinadi. Vatan-ostonadan boshlanadi, - degan hikmatga amal qilingan holda, oilaning ma‘naviy-ruhiy kamolotida asosiy o‘rin tutuvchi uy, ostona, hovli – umuman oila a‘zolarining ulg‘ayib, shaxs sifatidagi rivojida muhim omil bo‘lgan ilk hududiy birlik - muqaddas Vatan sifatida e‘zozlanib kelinadi. Oilaning mustahkamligiga – elning birbovurligi sifatida qaraladi. Elning birligi, sog‘lomligi o‘z navbatda yurt mustahkamligini ta‘minlovchi omil sifatida e‘zozlanadi. Har bir etnoijtimoiy va madaniy jarayonlarning ibtidosi oiladan boshlanar ekan, oila barcha fan tarmoqlari va sohalar tomonidan e‘tibor qaratishga loyiq.

Laqay elati etnomadaniy merosning asosida xalq og‘zaki ijodi yotib, u o‘z navbatida dostonchilik, ertakchilik, maqolchilik, terma qo‘shiqlar, naql va rivoyatlardan iborat. Xalqning butun orzu-umidi, armonlari hamda kelajakka ishonchi og‘zaki ijod namunalarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, etnik madaniyat va ma‘naviyatning o‘ziga xos tarixiy ildiziga ega bo‘lgan soqichilik (baxshichilik) san‘ati orqali folklor namunalarini xalqqa yetkazib, to‘g‘ri yo‘lga boshlash ko‘pni ko‘rgan soqilarning zimmasidagi ulkan mas‘uliyat bo‘lib kelgan.

Elat ma‘naviy merosida ko‘plab ertak, maqol, latifa, terma qo‘shiqlar va dostonlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, keyingi yillardagi milliy-ma‘naviy merosga munosabatning sustligi bois, bugungi kunda ularning kam miqdori saqlanib qolgan. Hech kimga sir ham emas hamda hech kim inkor ham qila olmaydiki, biz yaqin-yaqingacha butun aholi yoppasiga besavod bo‘lgan davr deb hisoblagan XX asrning boshlarida faqatgina laqaylarning o‘zidan o‘nlab soqichilik maktablari yuzdan ortiq soqilarni tayyorlagan bo‘lsa, bugungi kunda elat ichidagi soqilarning miqdori 3-4 taga yoki yetadi, yoki yetmaydi. Shu jihatdan ham ma‘naviy-madaniy merosimiz inqirozga yuz tutgan bugungi pallada og‘zaki ijod namunalarini to‘plab targ‘ib etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda savob hamdir.

O‘zbek-Laqaylarda atrofdagi turkiy xalqlar singari Alpomish va Go‘ro‘g‘li siklidagi doston va termalar ma‘naviy merosda ustunlik mavqega ega bo‘lgan. Elatning etnomadaniy hayotini o‘rganib, qator ilmiy maqola va monografiya e‘lon qilgan etnograf olima B.X.Qarmisheva laqaylarning ma‘naviy-madaniy merosida Alpomish va Go‘ro‘g‘li siklidagi eposlar mustahkam o‘rin olganligini aytib, avlodlar tomonidan e‘zozlab o‘rganilishini ta‘kidlaydi [1, S.14-26].

Albatta, bugungi kunda ham xalq og‘zaki ijod namunalarini kelajak avlodlar orasida targ‘ib etish ilgariga nisbatan sust bo‘lsada aholi orasida kuzatish mumkin. Bunday ijobiy holat erkaklarga nisbatan ayollar orasida yaqqolroq kuzatiladi. Ayniqsa dala va tomorqa ishlari to‘xtagan qish mavsumida hamda uzun qish kechalari qizlar va ayollar yig‘ilishib kashtalarini tikish bilan bir qatorda chechan ayollar va aytuvchilarni chorlab ertak, rivoyat, doston va qo‘shiqlar aytilishi hamda chanqovuzlarning sehrlovchi pardalarda chalinishi ma‘naviy va madaniy merosimizning avlodlardan-avlodlarga o‘tayotganligidan dalolatdir. Ushbu odat ilgari milliy marosim sifatida oyli kechalarda ham uzluksiz davom ettirilgan. Bu haqda olima M.Mirkamolova yozadi: «Naql, rivoyat, ertak, ashula va xalq qo‘shiqlarini maromiga yetkazib ijro etish ayollar

orasida ayni paytda ham davom etmoqda. O‘tmishda yorug‘ kechalari ayollar va qizlar qishloqning o‘ng‘ay joyiga to‘planishib qo‘shiqlar aytish, ertaklar aytishib chanqovuz chalishganlar. Tag‘aeva Halima opaning takidlashicha ushbu odat laqaylar istiqomat qiluvchi ba‘zi mavzelarda hozir ham davom etmoqda» [2, S.13]. Shuni ham ta‘kidlash joizki 1961-yilda laqay og‘zaki ijodini o‘rganish Tojikiston Fanlar Akademiyasi Ro‘dakiy nomidagi til va adabiyot institutining yillik rejasiga kiritilib, shu yilning iyul-avgust oylarida yosh tadqiqotchilar M.Mirkamolova va M.Xolovlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu bilan bir qatorda 1963-yili O‘zbekiston Fanlar Akademiyati Til va adabiyot instituti tomonidan ham ilmiy ekspeditsiya uyushtirilib, folklorshunos olim To‘ra Mirzaev tomonidan Dang‘araning Sargazon qishlog‘ida istiqomat qiluvchi Shomurod soqi Boyman o‘g‘lidan «Avazxonning Girdob ko‘liga safar qilishi» dostoni yozib olinadi [3].

Erkaklar bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodi namunalari ayollar tomonidan ham mahorat bilan ijro etilgan. «Janubiy Tojikistonda istiqomat qiluvchi laqay ayollaridan Zulayxo Tag‘aymurodova, Iqbol Haybatova, Bibish Oymatova, Jig‘agul Ostonaeva, Sayligul Qurbonova, Halima Ergasheva kabi aytuvchilar folklor namunalarini mahorat bilan ijro etganlar» [4, F.0521-1775].

O‘zbek-Laqaylar folklorida ertak janri ham keng rivojlangan bo‘lib, elat vakillari orasida kuplab ertak (masele) aytuvchilar, kechalari qishloq ahlini to‘plab yoki to‘y va marosimlarda tong otguncha aytishgan. Soqilardan farqli ravishda ertak aytuvchilar kunduzi aytmasdan faqat kechalari aytishgan. Kunduz kuni ertak aytish qat‘iyan ta‘qiqlanib, barcha ushbu tartibga amal qilganlar. Ertak aytuvchilarning shuhrati, mavqei va obruyi soqilarnikidan kam bo‘lmagan. Ular to‘ylarga taklif etilib, mehmonlar davrasini qizitganlar. Ertak aytuvchilar davralarda faqatgina ertaklar bilan cheklanib qolmasdan naql va rivoyatlar, maqollar, latifa va yoshlar orasida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan pand-nasihat tipidagi suhbatlarni ham boshqarib borib, aholi olqishiga sazovor bo‘lganlar. Shunday mohir, gapga chechan kishilardan «Ula Haybatov, Hasan Bobonazarov, Mirzabek Safarov, Halima Ergasheva, Iqbol Haybatova, Mora Jalmatov, Mengaliboy Tag‘aevlar xalq orasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lganlar» [4, F.1776-1777]. Bunday aytuvchilarning ba‘zilari elliktagacha ertak va qissalarni yoddan bilishganlar [4, F.0554]. Shu bilan bir qatorda ba‘zi aytuvchilar o‘zlarining eng sevgan qissa va ertaklari bilan shuhrat qozonganlar. Jumladan Jig‘agul Ostonaeva Tohir va Zuhra qissasi, Iqbol Haybatova Go‘ro‘g‘li qissasi (Go‘ro‘g‘li haqida ertak), Abdurazzoq Abdurahmonov Qubdishahriyor podshosining qissasi va uning vazirlari, Durxol Ruzmatova Gulmirza qissasi, Halima Ergasheva Tohir va Zuhra ertaklari orqali mashhur bo‘lishgan [4, F.7471-7486]. Barcha ertak va rivoyatlar «shunday qilib muradu maxsedlerige jetediler, bizmen sizem murad-maxsedlerimizge jeteyik» tarzida tugatiladi. Aholi orasida ayniqsa ayollar tomonidan soqilar kuylagan mashhur nazmiy dostonlarni rivoyat shaklida aytish keng tarqalgan. Alpomish siklidagi dostonlardan Boybo‘ri va Boysari, Go‘ro‘g‘li siklidagi dostonlar hamda Tohir va Zuhra, Gulmirza va Yozi Kal nasriy ohanglarda ham mazmun mohiyatiga putur yetkazilmasdan davralarda naql etilgan.

Elat xalq og‘zaki ijodida rivoyat, hikoya va naql etish o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Rivoyat, hikoya va naql janrlari ham qahramonlik eposlari singari yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, oqibatda ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi bilan tugallanadi. Shuningdek, hajviy-komik xarakterdagi rivoyat va naqllar ham mavjuddir. Rivoyatlardan: Hasan, Hasanning eshagining oxuri, Avaz, Yozi Kal, shuningdek tabiat hodisalariga, daryo, ko‘l, quduq, buloq, tog‘, tepa, tuztog‘, qishloq, shaharlarga bag‘ishlangan rivoyatlar etnik folklorda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivoyatlar orasida shajara tarixiga oid, yetti bobolarni bilish, o‘zi tug‘ilgan va yashaydigan qishloq, shuningdek yaqin atrofdagi asosiy nuqtalar tarixini targ‘ib etish ham keng tarqalgandir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda voqealarni rivoyat va naql etish, shuningdek, real tarixiy jarayonlarni hikoya qilish ham og‘zaki ijodda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Hikoyalar asosan 1920-1931-yillarda elat vakillarining bolsheviklarga qarshi kurashidagi tarixiy jarayonlar, ajdodlarimizning qahramonliklari, xususan Ibrohimbek va uning atrofidagi askarboshi va yigitlarning harbiy faoliyatlari, ularning Afg‘onistondagi ijtimoiy-harbiy faoliyatlari jarayon ishtirokchisi yoki ushbu voqealarni eshitgan kishi tomonidan hikoya qilinadi. Sovet hokimiyati Ibrohimbek va uning tarafdorlari haqida ijobiy fikr bildirishni qat‘iy ta‘qiqlagan bir sharoitda o‘sha tarixiy jarayon haqida soqilar tomonidan doston va termalar yaratishga imkon bo‘lmadi, buni albatta repressiv siyosiy vaziyat ham taqozo etmas edi. Ibrohimbekning harbiy faoliyati haqida faqatgina xorijda real baho berilib [5, B.132], Afg‘onistonda qolib ketgan elatdoshimiz Imomsoqi tomonidan qator doston va termalar yaratilib kuylandi.

Hikoya janriga ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari tomonidan urushdagi voqealar va bu jarayonlarda o‘zlarining tutgan mavqei hamda o‘rni haqidagi hikoyalar yigirmanchi asrning 50-60-70-yillardagi respublika janubida qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishdagi etnoijtimoiy jarayonlar, mustaqillikning dastlabki yillaridagi fuqarolar urushi voqealari hamda oxirgi yillarda yigitlar va erkaklarning Rossiya shahar va viloyatlaridagi mehnat faoliyatlari, militsiya xodimlari bilan munosabat masalalari, borib kelish, ish topish va ish haqini undirishdagi qiyinchiliklar haqida jarayon ishtirokchilari tomonidan to‘y, ma‘raka, davra va machitlarda hikoya qilinadi.

Xalq og‘zaki ijodida latifa janri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Latifa qahramonlari Afandi, Kal, Aldarko‘sa bo‘lib, ba‘zi hududlarda Laku Pak ham latifa qahramoni sifatida maydonga chiqadi. Latifalar ham to‘y, ma‘raka, davra va yig‘inlarda aytilib eshituvchilarni kulgiga chorlaydi. Shu jihatdan elat ma‘naviy tafakkuridagi latifa janri ba‘zi hududlardagi askiya janriga o‘xshab ketadi. Albatta, yuqoridagi xususiyatlar faqatgina laqay elatiga xos bo‘lmasdan, mintaqada yashovchi barcha turkiy tilli xalq va elatlar, hamda tojik millatiga ham xosdir. Chunki bir geosiyosiy hududda yashagan xalq, qaysi millat yoki elat vakili bo‘lishidan qat‘iy nazar doimo o‘zaro madaniy-ma‘naviy konvergensiya ta‘sirida bo‘ladi. Ya‘ni birining madaniyati ikkinchisining madaniy qirralari hisobiga boyib, rivojlanib boraveradi. Ushbu jihat madaniy taraqqiyotning ustuvor qonunlaridan biri sifatida etnomadaniy jarayonlar rivojini ta‘minlab kelgan.

Elat folklorida yuqoridagilar bilan bir qatorda qo‘shiq janri ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Qo‘shiqchilik janrida termalar, to‘rtliklar va qahramonlik eposlaridan parchalar yetakchi mavqeni egallaydi. Chunonchi Tohir va Zuhra dostonidan, Yozi Kal va Alpomish dostonidan parchalar qo‘shiq sifatida kuylanadi. Qo‘shiqlar do‘mbira, chanqovuz, doyra yordamida, shuningdek musiqiy asboblarsiz ham aytiladi.

O‘zbek millati tarkibidagi elatlar bir-biriga o‘xshash, shu bilan birgalikda urf-odati, turmush tarzi va o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadigan elat va etnik guruhlardan tashkil topgan. Bu elat va etnik guruhlar millat yaxlitligini, tabiiy go‘zalligini va milliy ruhini ta‘minlabgina qolmay, balki saqlab, tuman asrlardan buyon etnos shuhratini, milliy g‘ururi va birligini ta‘minlab kelmoqdalar. O‘zbek millati tarkibidagi laqay elati ham folklor va ma‘naviy meros namunalarida yuqorida ta‘kidlangan jihatlarni mujassam etib kelmoqdaki, etnik tarix bevosita ma‘naviy merosni o‘ziga qamrab olgan folklor namunalarida o‘z ifodasini topib, etnomadaniy jarayonlar rivojini ta‘minlab kelayotganligi e‘tiborlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайсы Южного Таджикистана. Труды Института истории, археологии и этнографии АН Тадж. ССР, т. ХХВИ. –Сталинабад, 1954, вып.И. -Стр. 14-26.

2. Миркамолова М. Мавқеи эпоси Гўрўғли дар фольклори лақай-ўзбекони райончои чанубии Точикистон. Диссертация барои гирифтани унвони илмии номзади фанҳои филология. –Душанбе, 1971. -Сах. 13.

3. Тожикистондаги ўзбек достончилари ижодини ўрганиш ҳақида. //Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 1964. № 5.

4. Тожикистон ФА Рудакий номидаги тил ва адабиёт институти архиви. Фонд ИВ: 0521-1775; Фонд ИВ: 1776-1777; Фонд ИВ: 0514; Фонд ИВ: 7471-7486.

5. Насриддин Назаров. Муҳаммад Иброҳимбек Лақай. –Т., 2006. – Б. 132.

6. Насриддин Назаров. Лақайлар: Этнография, лингвистика, фольклор. – Тошкент, 2010.